

BOSHLANG'ICH SINFLARDA HAYVONLAR HAQIDAGI ERTAKLARNING OBRAZLAR OLAMINI TALQIN QILISH YO'LLARI

U.Saidova

**Boshlang'ich ta'lim mutaxassisligi 2-kurs
magistranti**

Ma'naviy tarbiya, ayniqsa, kichik yoshdagi bolalarning ongiga Vatan tushunchasini singdirish, ularning dunyoqarashini shakllantirish, yoshlikdan elim deb, yurtim deb yashashga o'rgatish, e'tiqodli, g'ururli bo'lib o'sishlariga undash davr talabidir. Bolalarni qadimiy urf-odatlar, tarixiy-milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash, ularning dunyoqarashini shakllantirish, insonlarga xos eng yaxshi xislatlarni singdirish kabi g'oyalar, asosan, ular o'qiydigan asarlarda jamuljam bo'lishi lozim. Yurtboshimiz ta'kidlaganlariday, "... bolalarimizni yoshlik chog'idan boshlab milliy tarbiya, axloq-odob, yuksak ma'naviyat asosida voyaga yetkazish biz uchun doimo dolzarb ahamiyat kasb etib kelgan". Chunki "Kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq"¹.

Xalq hayoti, milliy ma'naviyati, urf-odatlari, udumlari, an'analari, orzu-umidlarini aks ettiruvchi ertaklar insonga axloqiy va badiiy ozuqa beradi. "Ertaklar kishilarda hayotga muhabbat uyg'otadi, kelajakka umid ko'zi bilan qarashga, eng yaxshi turmush, farovon hayot uchun kurashishga chaqiradi, yer yuzida adolat va insofning tantana qilishiga ishonch hosil qiladi"². Ertaklar yordamida bolalarning xotirasi, diqqati, tafakkuri rivojlantiriladi, tasavvur va fantaziyalari uyg'otiladi.

Folklorning epik turiga mansub ertaklar mavzusiga, til vositalaridan foydalanish usuliga, voqealar tizimiga ko'ra shartli ravishda uch yirik turga – hayvonlar haqidagi ertaklar, sehrli ertaklar, maishiy ertaklarga bo'linadi³.

O'zbek xalq ertaklarining salmoqli qismini hayvonlar haqidagi ertaklar tashkil etadi. Hayvonlar haqidagi ertaklar eng qadimgi zamonlarda paydo bo'lib, ibtidoiy odamning olam haqidagi totemistik va animistik qarashlarini ifodalagan. Mazkur qarashlardagi qush va hayvonlar, suv jonivorlari avval miflarda, keyin afsona, rivoyatlarda qahramon sifatida ishtirok etgan. Ertaklar yaratila boshlanganda esa mazkur an'ana bu janrga ham meros bo'lib o'tgan. Ibtidoiy odam hayvon ham odam kabi gapiradi, o'ylaydi, deb tushungan. Bu haqida E. Teylor o'zining "Ibtidoiy madaniyat" asarida shunday yozadi: "Ibtidoiy odam o'z atrofidagi hayvon va qushlarni o'zlariga o'xshatadi, ya'ni ular odam kabi so'zlashadi, fikrlaydi, urishadi, do'stlashadi, bir-birini sevadi, psixologik kechinmalarni kechiradi. Shu bilan qadimgi

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 2008. B.55. B.61.

² Razzoqov H., Mirzayev T., Sobirov O., Imomov K. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. T.: O'qituvchi, 1980. – B.124.

³ Madayev O., Sobitova T. Xalq og'zaki poetik ijodi. T.: Sharq, 2010. – B.65.

inson tushunchasida turli hayvonlar, qushlar haqida miflar, ertaklar, masallar yuzaga kelgan”⁴. Ya’ni ibtidoiy odam ba’zi sezgir va zo’r kuchga ega bo’lgan hayvonlarni muqaddas sanab unga sig’ingan, yovuz kuch va ofatlardan himoya qilishni so’rab, unga iltijo qilgan, afsun o’qigan. Sezgir yo zo’r kuchga ega bo’lgan hayvonlarni ulug’lash, madh etish, ularga sig’inish mazkur turkumdagi ertaklarning asosiy mavzusini tashkil etadi. Laylak, ilon, sigir, ayiq, tulki, ot va bo’rini totem sanash O’rta Osiyo xalqlari, jumladan, o’zbeklar orasida juda keng tarqalgan.

Sof hayvonlar haqidagi ertaklar nisbatan keyin, totemlar o’z kuchini yo’qota boshlagan davrda, u yoki bu hayvonni ulug’lash, unga sig’inish susaygan paytlarda yaratilgan. Ijtimoiy hayotning ovchilik bosqichidan chorvachilik bosqichiga o’tish jarayoni, aniqrog’i, mehnatning hal qiluvchi roli, aqliy bilish va tafakkur mazkur tip ertaklarda mavjud hayvon – personajlarning majoziy ma’no kasb etishiga olib keldi. Bir vaqtlar totem sanalgan hayvonlar ijtimoiy-siyosiy mazmunni aks ettirgan ko’chma ma’nodagi personajlarga aylandi. Ularda odamda mavjud salbiy axloq namunalari umumlashtirildi. Aytaylik, bo’ri, tulki, ayiq, qarg’a, ilon timsolida salbiy axloq, chumoli, xo’roz, qaldirg’och, qo’y, buqa timsolida esa ijobiy axloq namunalari ifodalandi.

Bolalar o’zlarining yosh xususiyatlariga qarab, ertaklarning u yoki bu turiga ko’proq qiziqadilar. Kichik maktab yoshidagi bolalar ko’proq sof hayvonlar haqidagi, qisman sehrli ertaklarga havas bilan qaraydilar. Buning asosiy sababi, mazkur ko’rinishdagi ertaklar sujeti ko’proq fantastik voqealar asosiga qurilganligidadir. G’oyaviy mazmuni va obrazlar talqinida majoz asosiy o’rinda turuvchi hayvonlar haqidagi ertaklarda hayvonlar xuddi odamlardek harakat qiladi, so’zlashadi. Hayvonlar haqidagi ertaklar tuzilish jihatdan boshqa tur ertaklardan farq qiladi. Ularning kompozitsion qurilmasi o’zining soddaligi bilan ajralib turadi. Sujet doirasini tashkil etuvchi obraz va voqealar miqdori kam bo’ladi. Bunday ertaklarda hamisha adolatsizlikdan aql kuchi bilan qutulish mumkin, degan xulosa mavjud. Insoniyatning qonida birga gupurayotgan adolatga bo’lgan tug’ma ehtiyoj bunday g’alabani qo’llab-quvvatlaydi, jon qulog’i bilan tinglashga undaydi.

Hayvonlar haqidagi ertaklar garchi majoziy mazmun kasb etsa-da, ularda har bir hayvonning tabiiy xususiyatini bo’rttirib ko’rsatish yetakchi o’rinda turadi. Bunday ertaklarda hayvonlar qanchalik shaxslantirilmasin, baribir, hayvonot dunyosi uchun xos bo’lgan xususiyatlar ularda mujassamlashgan bo’ladi. Hayvonlar va parrandalarning hayotda bajara oladigan ishlarining ertakda mahorat bilan ko’rsatilishi undagi reallikning oshishi va sujetning ishonarli, qiziqarli chiqishiga asos bo’ladi. Yosh bolalar yovvoyi hayvonlarni faqat rasmlarda, hayvonot bog’larida ko’rganlar. Fikr yuritilayotgan asarlar bu hayvonlar haqida bola tasavvurini kengaytiradi, aniqroq ma’lumotga ega bo’lish imkonini beradi.

⁴ Teylor E. Ibtidoiy madaniyat. M.: 1939. B.285.

Bu yoshdagi bolalarni garchi ertak fabulasi hammadan ko'proq qiziqtirsa-da, o'qituvchi unga singdirilgan g'oyani, qissadan hissani ham o'quvchilarga uqtira bilishi lozim. O'qituvchining ertak g'oyasini to'la ochib bera olishi o'quvchida ertak qahramonining g'alabasidan xursand bo'lib, salbiy qahramonga nisbatan nafrat uyg'onishida ko'mak bo'ladi.

Ertak matni ustida ishlashni tashkil qilishda timsollar va asarda tasvirlangan voqealarga munosabat tahlil markazida turadi. Boshlang'ich sinflarda ertakni tahlil qilish metodikasida kichik yoshdagi o'quvchilarning badiiy asarni idrok qilishidagi psixologik xususiyatlarini hisobga olish zarur. Ertak ustida ishlashda va uning asosiy bosqichlarini belgilashda o'qituvchi sinfda o'qish darslarining ta'limiy-tarbiyaviy vazifalariga, ertakning o'ziga xos xususiyatlariga va o'quvchilarning yoshlariga mos ravishda ertakni idrok etish xususiyatlariga amal qiladi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi ertakni o'qitish jarayonida obrazlarni (timsollarni) tahlil etib borishi zarur. Bunda quyidagilarga amal qilinadi:

1. Asarni o'qib berish yoki o'qitish orqali badiiy obraz haqida tasavvur hosil qilinadi.
2. Ertakdagi obrazlar bir-biri bilan qiyoslanadi.
3. Bir ertakdagi obrazlar boshqa bir ertakdagi obrazlar bilan taqqoslanadi.
4. Obrazlar tahlil qilinadi, ya'ni obraz xususiyatlari boshlang'ich sinf o'quvchilariga xos tarzda talqin qilinadi.
5. Qahramonlar surati, yashash sharoitiga doir rasmlar chiziladi.

Obrazlar olamini tahlil qilish darsning yangi mavzu bayoni, yangi mavzunini mustahkamlash bosqichlarida o'tkaziladi.

1. Asarni o'qib berish yoki o'qitish orqali badiiy obraz haqida tasavvur hosil qilishda quyidagi ish turlaridan foydalanish mumkin:

A. Badiiy o'qish. Bunda o'qituvchi yoki o'quvchi o'rni kelganda turli harakatlar qiladi, hayvonlar ovozigacha taqlid qilishi mumkin, ijobiy va salbiy qahramonni o'ziga xos qiyofada, aytaylik, tulkini tulkiga xos ayyor qiyofada, demakki, ertak qahramonlariga aynan o'xshatib badiiy o'qish yoki o'qitish o'quvchilarni his-hayajonga soladi, ularda hayvonot olami haqida bilim hosil qiladi. Ertak o'quvchilarning ongida muhrlanib qoladi.

B. Ertaklarni o'quvchilarga mos ravishda sahnalashtirish ham yaxshi samara beradi. Bu bola nutqini rivojlantirishga, lug'at boyligini oshirishga yordam beradi.

D. O'quvchilarni obrazlar olamiga olib kirishda ular uchun maxsus ishlangan multfilmlardan foydalanish ham maqsadga muvofiq. Bunda bolalar hayvonlarning xulq-atvori va yurish-turishi, nutqi, harakati, ovozi, imo-ishoralari bilan ham kengroq tanishadilar, bu haqda aniq tasavvur hosil qiladilar.

2. Ertakdagi obrazlarni bir-biri bilan taqqoslashda foydalaniladigan ish turlari. 4-sinf O'qish kitobidagi "Ko'zacha bilan tulki" ertagi ikki qismdan iborat

bo'lib, katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Mazkur ertakda tulki va bo'ri obrazlarini bir-biri bilan taqqoslash mumkin.

1. Quyida berilgan so'zlar ichidan tulkiga xos hamda bo'riga xos xususiyatlarni ajratib ikki ustun shaklida yozing.

Ayyorlik, ochko'zlik, g'azablilik, yolg'onchilik, qasoskorlik, berahmlik, sabrlilik, ziyraklik, laqmalik.

Tulkiga xos xususiyatlar:

Ayyorlik

Bo'riga xos xususiyatlar:

Ochko'zlik

Mazkur topshiriqni biroz o'zgargan shaklda ham berish mumkin:

Quyidagi so'zlar qaysi qahramonga taalluqli ekanini topib, birgalikda yozing:

Ayyor, ochko'z, g'azabkor, yolg'onchi, qasoskor, berahm, sabrli, ziyrak, laqma.

Namuna: Ayyor tulki, ochko'z bo'ri...

3. Bir ertakdagi obrazlar boshqa bir ertakdagi obrazlar bilan taqqoslanadi.

Bunda ertak qahramonlari quyi sinflarda o'qilgan hayvonlar haqidagi ertaklarning qahramonlari yoki sinfdan tashqari o'qish darslarida o'qilgan ertak qahramonlari bilan chog'ishtiriladi.

3-sinf O'qish kitobidagi "Go'zal fazilat – inson husni" bo'limida berilgan ikki – "Do'stlar" hamda "Noahillik oqibati" xalq ertaklaridagi qahramonlarni bir-biriga taqqoslash mumkin. "Do'stlar" ertagi qahramonlari – Qarg'a, Toshbaqa, Ohu va Sichqon o'zaro inoqligi, ahilligi va sadoqati tufayli ovchi tuzog'idan xalos bo'lgan bo'lishsa, "Noahillik oqibati" ertagidagi qahramonlar esa ahillik bilan ish yuritmay, manmanlikka quloq osib, ovchi domidan qochib-qutula olmaydilar.

4. Obrazlar tahlil qilinadi.

Ma'lumki, kichik yoshdagi bolalar ko'proq taqlidchan bo'lishadi. Ular ertak qahramonlarini kuzata turib, taqlid qilishadi. Ba'zan esa ular salbiy qahramonga ham taqlid qilishga urinishadi. Shuning uchun o'qituvchi bolalarga ijobiy qahramonlarni ibrat qilib ko'rsatishi, salbiy qahramondagi illatlarga nafrat uyg'ota olishi lozim.

Tanlab o'qish asosida obrazga xos xususiyatlarni aniqlatish mumkin. Bunda o'qituvchi topshiriq beradi. Masalan, tulkiga xos quyidagi sifatlar ertakning qaysi o'rnida namoyon bo'lgan? Tanlab o'qing.

Tulkining ziyrakligi o'ziga mehriyoday tortayotgan go'shtning qopqonda ekanligi sezganida, sabrliligi go'shtga ochofatdek tashlanmay, uni qo'lga kiritishga shoshilmaganligida, hiylagar, ayyorligi bo'rini tuzoqqa ro'para qilib, o'zi go'shtni paqqos tushirganida, berahmli bo'rining zorlanishlariga quloq tutmaganida va nihoyat yolg'onchiligi bo'riga cho'ltoq dumini ko'rsatib qutulib qolganida namoyon bo'ladi.



O'quvchilar topshiriqni quyidagicha bajarishadi:

Masalan, *tulki – berahm*:

“Bo’ri boshini xam qilib yordam so’rabdi:

– Qadrdon tulkijon, yordam ber. Meni ozod qilgin.

Tulki dumini likillatib:

–Yaqinda meni yutib yubormoqchi bo’lgan sen emasmiding? Yo’q, azizim, ovchilarni kutib turasan, – deb ketib qolibdi”(6).

5. Ertak mazmuni yuzasidan turli rasmlar ishlash vazifasini topshirish.

Obrazlarni grafik tasvirlashga oid bu topshiriq orqali ertak qahramonlarining o’quvchi qalbida nechog’li iz qoldirganini bilib olish mumkin. Ishlangan rasm ertak qahramonining bolada qanday his-hayajon uyg’otgani, unga qanchalik yoqqani (yoki aksincha)dan darak beradi. Topshiriq kompyuterning “Paint” dasturi yordamida ham bajarilishi mumkin. Bunda o’quvchining ruhiy olami ochiladi.

Hayvonlar haqidagi ertaklar ibratomuz g’oya va ta’limiy funksiyasi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Mahorat bilan yetkazilgan ertaklar bolada ko’tarinki, quvnoq kayfiyatni yuzaga keltirishga, kichkintoy bilan his-hayajonli, do’stona muloqot o’rnatishga, sezdirmay, osonlik bilan tarbiyaviy ta’sirni tashkil etishga, atrof-muhit haqidagi bilim va ma’lumot zahiralari samarali to’ldirishga imkon yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – 176 b.
2. Razzoqov H., Mirzayev T., Sobirov O., Imomov K. O’zbek xalq og’zaki poetik ijodi. Toshkent: O’qituvchi, 1980.
3. Madayev O., Sobitova T. Xalq og’zaki poetik ijodi. Toshkent: Sharq, 2010.
4. Imomov K. Hayvonlar haqidagi ertaklar. Toshkent: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012.

5. Jumaboyev M. O'zbek bolalar adabiyoti. – Toshkent: O'zbekiston, 2002.
6. Matchonov S. va boshq. O'qish kitobi (4-sinf uchun darslik). – Toshkent: Yangiyo'l poligraf servis, 2013.